

DORI MODDALARINI ORGANIZMGA YUBORISH YO‘LLARI VA TA‘SIRI

*Tibbiyot fakulteti farmatsiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Sa‘dullayeva Saida Jasurbek qizi

Ilmiy rahbari dots. Qalandarov Qobil Suyarovich

Toshkent shahar Alfraganus University.

Annotatsiya. Ushbu maqolada dori moddalarini organizmga yuborish yo‘llari va organizmga qanday ta‘sir qilish yo‘llari yoritib berilgan. Maqolada organizmga dori moddalarini qay usul bilan yuborish ham aytib o‘tilgan.

Abstract. This article describes the ways of administering drugs to the body and how they affect the body. The article also describes how drugs are administered to the body.

Резюме. В данной статье описаны способы введения лекарственных средств в организм и их влияние на организм. В статье также описано, как вводятся лекарства в организм.

Kalit so‘zlar: Dori moddalar, enteral, parenteral, peroral, sublingval, nitroglitserin, limfa, antimikrob, suspenziya, gematoensefalik.

Key words: drugs, enteral, parenteral, oral, sublingual, nitroglycerin, lymph, antimicrobial, suspension, hematoencephalic.


Ключевые слова: препараты, энтеральные, парентеральные, пероральные, сублингуальные, нитроглицерин, лимфатические, противомикробные, суспензия, гематоэнцефалические.

Dori moddalarining organizmga yuborilish tezligi, kuchi va ta‘sir etish muddati ularning qaysi yo‘l bilan organizmga yuborilishiga bog‘liq bo‘ladi. Dori moddalarini organizmga yuborilish yo‘llari asosan ikki guruhga bo‘linadi: enteral yo‘l (hazm yo‘li orqali) va parenteral yo‘l (hazm yo‘lini chetlab) turlariga bo‘linadi. Ana endi enteral va parenteral dori moddalarini yuborish yo‘llarini ko‘rib chiqsak.

Dorilarni enteral yo‘l bilan yuborishga: og‘iz orqali yoki peroral, til ostiga, o‘n ikki barmoqli ichakka, to‘g‘ri ichakka yuborish usullari kiradi. Dori moddalarini og‘iz orqali yuborish eng oson va tabiiy yo‘l hisoblanadi. Chunki bu usulda bemor dorini boshqa odamning yordamisiz mustaqil qabul qiladi. Og‘iz orqali (peroral) suyuq va qattiq dori shakllari yuboriladi. Dorilarni peroral yo‘l bilan yuborish buyurilganda dori og‘iz bo‘shligidan so‘rila boshlanishi mumkin. Ayrim dorilar til osti sohasi shilliq pardasi orqali organizmga yaxshi so‘riladi. Dorilarni til osti orqali yuborish sublingval (sub — ostidan, lingua — til) yo‘li deb ataladi. Masalan, toj tomirlar spazmini tezda yo‘qotish uchun til ostiga nitroglitserin tabletkasi qo‘yiladi. Dorilar organizmga sublingval yo‘l

orqali yuborilganda ular jigar va me'da-ichak yo'llarini chetlab o'tib, katta qon aylanish doirasiga tushadi. Ichakda dorining yuqori konsentratsiyasini hosil qilish maqsadida o'n ikki barmoqli ichakka dori zond orqali yuboriladi. Ayrim dori moddalari qisman me'da orqali so'riladi. Misol uchun: uxlatuvchi, issiqni pasaytiruvchi va yallig'lanishga qarshi dori vositalarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Ko'pchilik dori moddalar ingichka ichakka so'riladi, u yerdan limfa yo'llariga va jigar darvoza venasi sistemasi orqali katta qon aylanish doirasiga o'tadi (1-rasm). Jigarda moddalarning bir qismi inaktivlashadi. Dorilarning me'da-ichak yo'llarida so'rilishi uchun eng optimal sharoit ovqatlanishdan 2 soat oldin yoki ovqatlanishdan 2 soat keyin vujudga keladi.

1-rasm. Dori preparatlarini yuborishning enteral yo'li



Ana endi biroz tog'ri ichakga dorilarni yuborishga to'xtalib o'tsak. To'g'ri ichak orqali dorilar qo'llanilganda, qon tez so'riladi va og'iz orqali qo'llanilganiga nisbatan ta'siri tez bo'ladi. Lekin bu yo'l bilan qitqlovchi dori qo'llanilsa, defekatsiya akti chaqirishi va shilliq pardalar yallig'lanishi mumkin. Rektal yo'l bilan mahalliy (svechalar), reflektor (sovunli suv va glitserin) va rezarbtiv ta'sir etish uchun qo'llaniladi. Rektal yo'l bilan dori Esmerx kurushkasi yordamida antimikrob, burishtiruvchi, yallig'lanishga qarshi dorilar qo'llaniladi. Suyuqliklar miqdori 10 ml dan 2 litrgacha bo'lishi mumkin.

Bu usul me'da-ichak yo'llarini chetlab teri ostiga, mushak orasiga, venaga, miya pardalari ostiga, qorin va plevra bo'shlig'iga, ingalyatsion yo'llar orqali

organizmga dori moddalarini yuborishdir. Dori moddalarini o'pka orqali nafasga oldirish yo'li bilan organizmga kiritish ingalyatsiya deyiladi. Bu yo'l bilan organizmga gazlar, uchuvchan suyuqliklarning bug'lari, aerozollar (mayda dori zarrachalarining havodagi suspenziyalari) kiritiladi. Ular qon tomirlarga boy bo'lgan o'pka alveolalari orqali qonga tez o'tadi. Dori moddalari organizmning to'qimalariga, bo'shliqlariga suyuq muhitiga (teri ostiga, mushak orasiga, venaga, miya pardasi ostiga va hokazo) ignali shpris yoki ignasiz in'ektor yordamida yuboriladi. Ayrim hollarda, masalan, organizmga tomchilab dori yuborishda maxsus sistemalardan foydalaniladi. Organizmga infeksiya tushirmaslik uchun in'eksiya uchun ishlatiladigan dori shakllari steril bo'lishi kerak. Vena tomir ostiga dori moddalari suvli eritma shaklida yuboriladi. Suspenziya va moyli eritmalarini venaga yuborish mumkin emas, chunki emboliya (qon tomirlarda qattiq modda zarrachalari va yog' tiqilib qoladi) yuz berishi mumkin. Dori moddalarni venaga asta-sekin yuborish kerak, aks holda qonda dori moddaning konsentratsiyasi birdan ko'payib ketishi va organizmga toksik (zaharlovchi) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Venaga dori yuborilganda dori juda tez, deyarli dastlabki minutlardayoq organizmga so'riladi. Dorilarni venaga yuborish usulida vena qon tomir yo'li bo'ylab og'riq sezilishi, tromboz (vena trombalardan tiqilib qolishi) yuz berishi ehtimoldan yiroq emas. Dori moddalari qonga quyilgandan keyin organizmning suvli muhitida tez tarqaladi. Ular organizmda ikki xil taqsimlanishi mumkin. Ko'pchilik dorilar notekis taqsimlanadi, ba'zilar esa bir tartibda tekis taqsimlanishi mumkin. Dori moddalarning taqsimlanishiga tarqalish yo'llarida joylashgan bir qancha tabiiy to'siqlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bularga kapillyar tomirlaning devorlari, hujayra devorlari, gematoensefalik, yo'ldosh to'siqlari kiradi. Moddalarning organizmda to'planishi ularning oqsillar bilan hosil qiladigan birikmalarining mustahkamligiga bog'liqdir. Shunday qilib dori moddalarini organizmga yuborishning ham salbiy, ham ijobiy tomonlarini ko'rishimiz mumkin ekan. Endi salbiy tomonlar deganda aytib o'tishimiz kerakki, avvalo organizmga yuborilayotgan dori moddalarining dozasi normal miqdorda bo'lishi, dori moddalarining to'g'ri qo'llanilishi kabi uslublarni aytishimiz mumkin, agarda dori moddalari dozasi ko'p miqdorda, to'g'ri qo'llanilmasa salbiy tomonga qarab ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin ekan.

Ushbu maqolada xulosa qilib aytishimiz mumkinki, dori moddalarini bemor qay tartibda qo'llay olishini, qay tartibda ijobiy, qay tartibda salbiy tomonlarga ta'sir qilishini o'rganib chiqishimiz mumkin ekan. Shifokor ko'rsatlariga binoan dori vositalarini organizmga qo'llasak, shunda bemorga ijobiy ta'sir ko'rsatishini, aks holda o'zimiz bilgan holda dori moddalarini organizmga qo'llasak salbiy tomonlarga olib borishiga amin bo'lishimiz mumkin ekan. Shuning uchun azizlar sog'ligimizga befarq bo'lmaylik !

Фойданилган адабиётлар:

1-Фармакология с рецептурой Перевод со второго, переработанного и дополненного издания издательства «Медицина» Москва, 1982 Редакция мудир А. Камо лов Вед актер Н. Рустамова Бадиий редактор О. А\$маджонов Техредактор В. Мешчерякова Корректор М. Хайдарова.

2-Meditsina xamshiralari o'quv qo'llanmasi Ramazanova R. A. Taxriri ostida, Toshkent "O'qituvchi", 1985.

3-O'qituvchilarning meditsina-sanitariya tayyorgarligi. V. N. Zavyanov, M.I. Gogolev, V.S. Mordvinov, B.A. Gayko, V.A. Shkuratov, V.I. Ushakova, Toshkent "O'qituvchi", 1991.

4- Grajdan mudofaasi P. G. Kubovskiyning umumiy taxriri ostida. Toshkent "O'qituvchi", 1992.